

Abu Nasr Farobiy ta'limotining pedagogika fanidagi ahamiyati

Sevara Murodjon-qizi Alimova
E'zozaxon Oybek-qizi O'rmonjonova
Mohichehra Ilhomjon-qizi Rozziqova
Ilmiy maslahatchi: M.M.Mirzakarimova
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Nasr Farobiyning pedagogik qarashlari hamda uning asarlarida bayon etilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar tahlil qilinadi. Unda mutafakkirning ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni, axloqiy tarbiya hamda ustoz va shogird munosabatlariga oid g'oyalari yoritib beriladi. Shuningdek, Farobiy ta'limotining pedagogika fanidagi ahamiyati va uning bugungi ta'lim jarayonidagi dolzarbligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik qarashlar, ta'lim-tarbiya, axloqiy tarbiya, ilm-fan, mantiq ilmi, falsafa, baxt-saodat, komil inson, mo'tadillik tamoyili, ustoz-shogird munosabati, musiqa nazariyasi, Sharq uyg'onish davri

The significance of Abu Nasr Farobi's teachings in pedagogical science

Sevara Murodjon-kizi Alimova
E'zozaxon Oybek-kizi Ormonjonova
Mohichehra Ilhomjon-kizi Rozzikova
Scientific advisor: M.M.Mirzakarimova
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article analyzes the pedagogical views of Abu Nasr Farobi and the ideas on education expressed in his works. It highlights the thinker's ideas on the role of science in human development, moral education, and teacher-student relations. It also discusses the significance of Farobi's teachings in pedagogical science and its relevance in today's educational process.

Keywords: pedagogical views, education, moral education, science, logic, philosophy, happiness, perfect person, principle of moderation, teacher-student relationship, music theory, Eastern Renaissance

Sharq uygʻonish davri mutafakkirlari inson kamoloti, ilm-fan taraqqiyoti va jamiyat rivojida taʼlim-tarbiyaning oʻrni haqida muhim gʻoyalarni ilgari surganlar. Ana shunday buyuk allomalardan biri Abu Nasr Farobiy hisoblanadi. Al Farobiy 870-yil (boshqa maʼlumotlarga qaraganda 872-yil) Sirdaryodagi Aris daryosi chuqurligida joylashgan Vosij shahrining Faroba tumani atrofi Oʻtror qishlogʻida tavallud topgan. U imtiyozli tabaqaga tegishli turkiylar oilasidan boʻlgan.

Al Farobiy dunyoni bilishga intilib, ona yerini tark etadi. Bir maʼlumotga koʻra, u oʻspirinlik davrida, boshqa birida esa qirq yoshlarida uyidan ketgan deb aytilgan. Farobiy Bagʻdod, Xorrun, Damashq va Arab xalifatining boshqa shaharlarida boʻlgan. Ilm olish maqsadida hayotining koʻp yillarini Bagʻdodda oʻtkazadi va u yerda "Bayt ul hikmat" arboblari ishlarini, yunon mualliflarining tarjimalarini oʻrganib, oʻz bilimlarini puxta boyitadi, taniqli olimlar bilan tanishib, oʻzining yuqori axloqi va tafakkuri tufayli ular orasida yetakchi oʻrinlarga erishadi. Aynan oʻsha vaqtda, Arastuni asarlarini oʻrganish orqali uning asarlariga oʻz fikrlarini, izohlarini yozadi. Shu sababli unga "Muallim Assana", yaʼni Ikkinchi ustoz (Arastudan keyin ikkinchi, deya nazarda tutilgan) maqomi berilgan.

Abu Nasr Farobiy Bagʻdodga kelishidan avval turk va boshqa tillarda soʻzlashgan, lekin arab tillarida emas, lekin umrining soʻnggiga qadar yetmishga yaqin tilni bilgan. Bagʻdodda yashayotgan vaqtda turli ilmlarni, jumladan, mantiq ilmi bilan shugʻullana boshlagan. Bu vaqtda Bagʻdoddagi eng taniqli mutafakkirlardan biri Abu Bishr Matt ben Yunisning oʻquvchilari safiga kirib, ilm olishga kirishib ketdi, Arastu merosini chuqur oʻrganib, buyuk yunon olimi qoldirgan masala va muammolar yechimida yengillikka erishdi.

Bagʻdodda Al Farobiy oʻz bilimlarini chuqur boyitadi va taniqli olimlar munosabat oʻrnatib ular orasida nufuzga erishadi. Lekin aqidaparast yoʻnalishdagi ulamolar orasida Farobiyda safdoshlarining fikrlariga nisbatan nisabatn ziddiyat uygʻonib, bilimga ega boʻlishda aql-idrokka asoslangan va insonlarni dunyoviy hayotida baxtga erishish yoʻliga qaratilgan fikri olgʻa turadi. Natijada, Farobiy Bogʻdodni tark etishga majbur boʻladi. Olim 941-yildan Damashqda muhtojlikda kun kechira boshlaydi. Shunga qaramay, olim ilm olishdan toʻxtamaydi, falsafa va boshqa fanlar sohasida tadqiqot ishlari olib boradi. Oʻsha yerda Aleppo hokimi boʻlib turgan Hamdamidning iltifoti va hurmatiga erishadi. U yerda olimlarning homiysi sifatida taniladi. Hokim Farobiyni saroyga taklif etadi, lekin saroyga bormasdan erkin hayot kechirishni maʼqul koʻradi. Allomani Halabdagi hayoti juda mazmunli kechadi, oʻzining koʻplab asarlarini tugalladi.

Farobiy 949-950-yillarda Misrda, soʻngra Damashqda yashaydi va shu yerda umrining soʻnggi kunlarini oʻtkazadi. U Damashqdagi "Bob as-sagʻir" qabristoniga dafn etilgan. Mavjud maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, alloma 160 dan ortiq asar yozgan. Lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramay, mavjud risolalar

uning buyuk olim ekanidan dalolat beradi. Farobiyning asosiy asarlari: "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Ensiklopediyadan mantiq bo'limining bir qismi", "Taliqot (sharhlar)", "Inson a'zolari haqida risola", "Bo'shliq haqida maqola", "Donolik asoslari", "Mantiq ilmiga kirish", "Aql to'g'risida", "Qonunlar haqida kitob", "Ritorika haqida kitob", "Fozil shahar aholisining fikrlari", "Musika haqida so'z".

Farobiy dunyoqarashida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy firklar ham muhim o'rinni egallaydi. Allomaning "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola", "Buyuk kishilaraning naqllari", "Musika haqida katta kitob" va boshqa asarlari jamiyat va uni boshqarish, axloq-odob va ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan. Mutafakkir "Musika haqida katta kitob" nomli ko'p jildli asarida musiqa nazariyasi va tarixi, turli musiqa asboblari hamda, ularning ichki tuzilishi, tovushlar, ritmlar, ohanglar haqida ma'lumot berdi, ilmi iyqo va ilmi ta'lif fanlariga asos soldi. Yuqoridagi asarida o'tmishda o'tgan musiqashunos va tadqiqotchilarning musiqa taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini qayd qilingan. Bundan tashqari, kuylar uyg'unligi, kuy ijro etish usullari haqida so'z yuritiladi. Rivoyatlarda keltirilishicha, Farobiy yangi musiqa asbobi yaratgan, kuy bastalagan va mohir sozanda nomiga sazovor bo'lgan. Farobiyning ta'kidlashicha, musiqiy tasavvurlar inson ruhining eng nozik joyidan qaynab chiqib, ohang holida sezgi quvvatlariga ta'sir qiladi. Allomaning dunyoqarashi, uning jamiyat va axloq to'g'risida yaratgan ta'limoti ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy fikr rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning qarashlari Sharq mamlakatlarigacha keng yoyildi.

Farobiy ilmlarni tasniflashda borliq xususiyatlarining tahlilidan va ularning fanda aks etishidan kelib chiqadi. Uning tasnifi, eng avvalo, tabiatni, tafakkur va nutqni, til va mantiqni o'rganishga qaratilgan. Farobiy ta'limotiga ko'ra, ilmlarning tasnifidan maqsad haqiqatni o'rganish va tasdiqlashdan, uni yolg'ondan farqlashdan iborat. Uning qayd etishicha, fanlar va umuman barcha bilimlar borliqdan kelib chiqib, borliqni uzoq muddat o'rganib chiqish asosida ko'payib boradi. Turli ilmlar bir-birini inkor qila olmaydi, lekin o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanadi.

Abu Nasr Farobiy insonga xos bo'lgan va uning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta'lim-tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim qism deb baholaydi. Insonning ma'naviy hayotida, asosan, uni ikki tomonga aql-idrok ongiga va axloqiga e'tibor beradi. Shu sabab, insonni fazilatli bo'lmog'ida ham aqliy ham axloqiy jihatlar yetuk darajaga olib chiqilishi lozim. Farobiy ta'lim-tarbiya berishning shu usuli haqida yozgan:

birinchi usul - qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi va malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, kasbga intilish harakatga aylantiriladi.

ikkinchi usul - majbur etish yo'lidir.

Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli inson bo'la olishini ta'kidlaydi.

Farobiy axloqiy tarbiyada "o'rta me'yori" (mo'tadillik) tamoyilini ilgari suradi. Bu tamoyil salomatlik masalasiga ham bevosita daxldordir. Masalan, ovqatlanishda, mehnat qilishda va dam olishda me'yorni saqlash-salomatlik garovi bo'lsa, xuddi shunday, jasorat, sahiylik va adolat kabi axloqiy fazilatlarda ham me'yori bo'lishi kerak. Haddan tashqari jasorat - qo'pollik va ehtiyotsizlikka, haddan tashqari sahiylik - isrofgarchilikka olib kelishi mumkin. Demak, Farobiy nazdida, axloqiy me'yori va jismoniy me'yori insonni baxtga yetaklovchi yagona yo'lining ikki tomonidir. U inson tanasini chiniqtirishi, unga g'amxo'rlik qilishi kerakligini, chunki tana ruhining "ulovi" ekanligini uqtiradi [2; 391-bet].

Farobiy o'z ma'naviy-axloqiy ta'limotida insoniy xislat-fazilatlarni to'rtga bo'ladi: nazariy fazilatlar, tafakkur, yaralma fazilatlar, amaliy san'at fazilati (kasb-hunar). "Baxt-saodatga erishuv haqida"gi risolasida mutafakkir inson go'zallikni samarali idrok etishi uchun nozik tabiat va aqliy mukammallik zamini bo'lishi kerak, hissiy va aqliy qobiliyatga ega bo'lgan insongina dunyoning barcha sirlarini bila olishi mumkin, deb ta'kidlaydi.

Insonni har tomonlama mukammal qilib yetishtirish uchun undagi ijobiy hislatlarni tarbiyalash va yuqorida ko'rsatilgan yo'llar orqali salbiy xislarning ta'siriga qarshi kurashish natijasida amalga oshiriladi. Farobiy axloq tushunchasini keng ma'noda talqin qilar ekan, butun insonlarni, ularning dini, e'tiqodi, irqi, tilidan qat'iy nazar, hamjihatlik va hamkorlikka chaqiradi. Dunyoda bir butun yagona inson jamoasini shakllantirishni va barcha fuqarolarning manfaatlarini birdek ko'zlab faoliyat ko'rsatishini orzu qiladi. Farobiyning o'z davrida ilgari surgan dunyoda yagona jamiyat barpo qilish to'g'risidagi g'oyalari keyinchalik dunyoning ko'plab mutafakkirlari, jumladan, nemis faylasufi I.Kant tomonidan ham ilgari surilgan. Allomaning fikricha, yuksak axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda rivojlanayotgan har qanday davlat o'z fuqarolarini, shak-shubhasiz, baxt-saodat yo'liga olib chiquvchi kuchli quroldir. Inson ilm va axloq egasi bo'lgandagina yaxshi odatlarni shakllantira oladi, u har qanday yovuz, buzg'unchilar ko'chasiga kirmaydi, aksincha, ularga nisbatan shafqatsiz jang olib borishga tayyor bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr Farobiy Sharq uyg'onish davrining yirik allomasi sifatida nafaqat falsafa va mantiq ilmi, shu jumladan, pedagogika sohasida ham chuqur va tizimli ta'limot yaratgan mutafakkirdir. Farobiy ilmni haqiqatni anglash vositasi, axloqni esa jamiyat barqarorligining tayanchi deb hisoblaydi.

Alloma insonni har tomonlama mukammal qilib tarbiyalash kerakligini ta'kidlab, aqliy va axloqiy fazilatlarning uyg'un rivojlanishini asosiy mezon sifatida baholaydi. U ilgari surgan mo'tadillik tamoyili, ustoz va shogird o'rtasidagi muvozanatli munosabat kabi g'oyalari bugungi pedagogika nazariyasi bilan hamohang bo'lib

qolmoqda. Farobiy merosi nafaqat o'z davri, balki bugungi kun pedagogik tafakkuri uchun ham muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Uning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bugungi davr yosh avlodlarini ma'naviy yetuk, aqliy salohiyatli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashda dolzarb ahamiyatga ega omil bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muyitova K.(2023).ABU NASR FOROBIYNING TA'LIM-TARBIYA BERISHGA OID PEDAGOGIK QARASHLARI.Journal of New Century innovations
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri.Toshkent.Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,1993.
3. Abu Nasr Farobiy.Fazilat,baxt-saodat va kamolot haqida.Toshkent, Yozuvchi.2001.
4. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
5. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
6. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
7. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
8. Умнов, Д. Г., Кариев, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. Перспективы науки и образования, (6 (72)), 420-436.
9. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.
10. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE" MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(5), 51-55.
11. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 264-269.
12. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. Science and Education, 5(4), 278-282.
13. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. Science and Education, 5(2), 224-228.

14. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. *Science and Education*, 4(12), 321-324.
15. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. *Science and Education*, 4(11), 78-83.
16. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION METOD VA VOSITALAR. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 410-415.
17. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 97-103.
18. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY*, 1(1), 63-65.
19. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. *Telematique.-2022.-S*, 7128-7131.
20. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 216-222.
21. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 92-94.
22. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.
23. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. *Science and Education*, 6(11), 281-284.
24. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. *Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology*, 12(4), 154-160.
25. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishda axborot xavfsizligi. *Science and Education*, 6(10), 89-93.
26. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ УЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.

27. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(7), 11-15.

28. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. *Technical Science Integrated Research*, 1(6), 8-10.

29. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(6), 8-11.